

**ELEKTRON TO'LOV TIZIMLARI VA TIJORAT BANKLARI
PUL O'TKAZMALARIDAGI AFZALLIKLARI**

Azizkulov Baxtiyor

*SamDU Urgut filiali biznesni boshqarish va
aniq fanlar kafedrası mudiri, iqtisod fanlari falsafa doktori*

Adullayev Jamshid

*SamDU Urgut filiali biznesni boshqarish va
aniq fanlar kafedrası o'qituvchisi*

Hayitov Afruz Xurshidovich

*Sh.Rashidov nomidagi Sam DU Urgut filiali talabasi Email:
hayitovafruz@gmail.com [tel:+998 99 876 24 44](tel:+998998762444)*

Sayfiyev Mirjahon Zikirilloevich

*Sh.Rashidov nomidagi Sam DU Urgut filiali talabasi
Email:mirjahonsayfiyev@gmail.com [tel:+998 99 996 04 20](tel:+998999960420)*

Annatsiya: Hozirgi raqamli texnologiyalar va iqtisodiyot korporatsiyasi jadal o'sib borayotgan davrda , tijorat banklari naqdsiz pul tizimini takomillashtirish, banklararo pul o'tkazmalarini xavfsiz va qulay bo'lishiga intilish zaruriyatini tug'diradi. Bu jarayonlar mijozlarni naqd pulsiz hisob kitoblarga talabini oshirish va tijorat banklari o'z daromadlarini oshirishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda, electron pullar va banklararo pul o'tkazmalar haqida ushbu maqolada so'z boradi.

Kalit so'zlar: Elektron to'lov tizimi , internet, elektron pullar, tranzaksion, information.

Аннотация: В эпоху бурного роста цифровых технологий и экономических корпораций коммерческим банкам необходимо совершенствовать систему безналичных денег, стремиться сделать межбанковские денежные переводы безопасными и удобными. Эти процессы создают широкие возможности для увеличения спроса клиентов на безналичные расчетные книги и для коммерческих банков для увеличения своих доходов, именно об этом и говорилось в данной статье об электронных деньгах и межбанковских денежных переводах.

Ключевые слова: Электронная платежная система, Интернет, электронные деньги, транзакция, информация.

Abstract: In the current era of rapid growth of digital technologies and economic corporations, commercial banks are faced with the need to improve the cashless system, to make interbank money transfers safe and convenient. These processes create great opportunities for customers to increase their demand for cashless accounts and commercial banks to increase their income, this article discusses electronic money and interbank money transfers.

Keywords: Electronic payment system, internet, electronic money, transaction, information.

Kirish

Raqamli texnologiyalar jadal oʻsgan davr electron toʻlovlarga ham oʻz taʼsirini oʻtkazmay qolmadi. Elektron toʻlov tizimi – internet orqali amalga oshiriladigan toʻlovlar tizimidir. Bu kabi tizimdan foydalanish uchun pul mablagʻlarni yuboruvchi hamda qabul qiluvchi muayyan tizimda roʻyxatdan oʻtgan boʻlishlari kerak. Elektron pullarni elektron hamyon yoki toʻgʻridan toʻgʻri bank kartasidan yuborish mumkin. Texnika vositalaridan, axborot texnologiyalaridan va axborot tizimlari xizmatlaridan foydalangan holda elektron toʻlov hujjatlari vositasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish elektron toʻlovdur. Masofaviy texnologiyalar mijozga bank xizmatlaridan foydalanishda maksimal qulaylik va bank bilan ishlash jarayonida vaqt hamda moliyaviy xarajatlarni minimallashtirish imkonini beradi.

Elektron toʻlov tizimlari va tijorat banklari pul oʻtkazmalari mamlakatimiz iqtisodiyotidagi dolzarbligi.

Elektron toʻlov toʻlov tizimining subyektlari oʻrtasida tuzilgan shartnomalar asosida toʻlov tizimining belgilangan qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi. Bugungi kunda aholi tijorat banklarining mobil ilova dasturlari orqali real vaqt rejimida kartadan kartaga pul oʻtkazish (P2P) operatsiyalarini bajarish, soliq, byudjet, kommunal va boshqa toʻlovlarni amalga oshirish, mikroqarz olish va kreditlarni soʻndirish, onlayn omonatlarni rasmiylashtirish, depozit hamda ssuda (kredit) hisobvaraqlarini masofadan ochish, xalqaro bank karta hisobvaragʻidan toʻlovlarni amalga oshirish, onlayn konversiya operatsiyalarini amalga oshirish va boshqa masofaviy bank xizmatlaridan keng foydalanmoqda. Oʻz navbatida, korxonalar va tashkilotlar uchun bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlari orqali real vaqt rejimida bank hisobvaraqlaridagi mablagʻlarni tasarruf etish va toʻlovlarni amalga oshirish, valyuta mablagʻlari sotib olish (konvertatsiya) uchun buyurtmanomani elektron shaklda xizmat koʻrsatuvchi bankka yuborish, oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan toʻlovlarni oʻtkazish uchun elektron qaydnomani bankka uzatish va boshqa xizmatlardan foydalanish boʻyicha imkoniyatlar yaratildi. Bu imkoniyatlar mijozlarga masofadan xizmat koʻrsatish tizimi mijozlarga taqdim etilayotgan xizmatlarning xarakteriga koʻra ikki turga boʻlish mumkin:

1. Tranzaksion. 2. Informatsion


Informatsion banking mijozlarga moliyaviy maʼlumotlarni taqdim etishga yoʻnaltirilgan boʻlsa, tranzaksion banking moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishga imkoniyat yaratadi. Masofaviy bank xizmatlarining asosiy tamoyili mijoz va bank oʻrtasida turli axborotlarning masofadan almashinuvi hisoblanadi. Bunda bank tomonidan mazkur amaliyotning xavfsizligi taʼminlanadi. Masofaviy

xizmatlardan foydalanuvchilar soni yildan yilga o'sib bormoqda 1-rasmda ko'rishimiz mumkin elektron pullarga bo'lgan talabni oshayotganini.(1-rasm)

Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni

(turlari bo'yicha)

1 yanvar holatiga



Markaziy bank rasmiy ma'lumotida mijozlarni foydalanganlar soni yillar kesimida tasvirlangan bu ko'rsatgichlar yildan yilga o'sib bormoqda bu esa elektron pullar hajmini oshib borayotganidan dalolat beradi. Banklararo pul o'tkazmalar hajmi ham jadal o'sib bormoqda. Banklararo to'lov tizimi mamlakatimizning mustaqillikdan keyingi dastlabki to'lov tizimi sifatida barcha to'lov tizimlari ishlashi uchun poydevor hisoblanadi. Hozirgi kunda Markaziy bankning Banklararo to'lov tizimida to'lovlarni amalga oshirish maqsadida 31 ta tijorat banki to'lov tizimi foydalanuvchilari sifatida ulangan. Mazkur to'lov tizimida to'lovlar real vaqt rejimida yalpi hisob-kitob tamoyili asosida, ya'ni to'lov hujjati kelib tushgan vaqtdan boshlab bir necha soniyalar ichida to'lov amalga oshiriladi hamda natijasi haqida tashabbuskor va benefitsiarga xabar yuboriladi. Banklararo to'lov tizimining qoidalari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadi. Markaziy bank rasmiy bayonotida 31 ta bank tomonidan o'zaro tranzaksiya summasi yillar kesimida tasvirlandi 2-rasm.

Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar summasi



Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshirilayotgan tranzaksiya summasi 2011-2021-yillar oralig`ida ko'rishimiz mumkin. 2011-yil tranzaksiya summasi 688 973 mlrd , 2021-yilga kelib tranzaksiya summasi 2 785 651 summaga ko'tarilganligi electron pullardan foydalanish hajmi o'sganidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bank rasmiy ma'lumotida teskor to'lovlar tizimi orqali amalga oshirilayotgan to'lovlar tahliliy ma'lumotida 2024 – dekabr oyi davomida qabul qilingan to'lovlar va budjetga to'lovlar soni va summasida ko'rishimiz mumkin tijorat banklari electron to'lov tizimlarida qay darajada faol ishtirok etayotganini ko'rishimiz mumkin 1-jadval.

Markaziy bankning Tezkor to'lovlar tizimi orqali amalga oshirilgan to'lovlar haqida tahliliy ma'lumot					
№	Bank nomi	2024-yil dekabr oyi davomida qabul qilingan to'lovlar		Shu jumladan byudjetga	
		soni	summasi	soni	summasi
1	Markaziy bank	548 219	15 088 879 238 656	-	-
2	Milliy bank	345 710	15 285 474 987 215	128 985	3 258 423 362 008
3	O'z sanoatqurilishbanki	231 715	18 524 725 923 510	92 465	4 692 299 708 975
4	Agrobank	16 642	605 461 436 216	1 129	15 393 509 268
5	Mikrokreditbank	91 074	1 914 676 380 158	26 850	281 293 860 399
6	Xalq banki	185 518	5 429 538 286 328	99 908	495 867 092 910
7	Garant bank	27 444	510 431 206 531	9 273	43 620 909 190
8	Biznesni rivojlantirish banki	1 022 310	3 714 062 469 847	896 479	796 960 293 470
9	Turonbank	9 723	297 844 709 758	774	25 705 108 409
10	Hamkorbank	198 181	7 324 959 213 288	52 374	668 263 374 722
11	Asaka bank	83 078	6 156 963 965 683	16 238	1 581 985 376 407
12	Ipak Yo'li banki	23 589	1 445 292 272 696	1 158	28 650 469 154
13	Ziraat Bank Uzbekistan	8 190	704 912 677 227	1 208	60 441 414 696
14	Trastbank	101 768	4 647 214 872 776	21 827	357 462 598 092
15	Aloqabank	585 380	3 786 804 271 282	466 601	1 607 214 516 519
16	Ipoteka-bank	28 065	1 076 708 901 594	2 665	55 149 414 824
17	KDB Bank O'zbekiston	1 341	227 101 411 138	142	21 568 548 965
18	Soderot bank Toshkent	10 078	1 718 808 886 335	1 459	1 180 466 081
19	Universal bank	32 999	1 478 852 092 207	5 374	70 787 946 325
20	Kapitalbank	30 306	3 434 607 599 564	2 532	263 665 518 425
21	Octobank	843	31 529 939 896	41	1 237 927 808
22	Davr-bank	11 270	640 525 411 919	478	13 330 737 764
23	Invest Finance bank	5 322	632 504 724 708	438	16 028 229 176
24	Asia Alliance bank	203 638	4 306 434 727 338	16 952	231 954 663 751
25	Orient Finans bank	79 086	5 888 790 780 300	11 762	516 864 116 657
26	Madad Invest bank	268	4 672 748 997	4	20 157 940
27	AVO bank	-	-	-	-
28	Poytaxt bank	3 063	155 288 116 086	455	11 739 889 716
29	Tenge bank	225	15 548 271 952	15	999 703 089
30	TBC bank	567	220 000 731 056	27	1 618 543 351
31	Anor bank	13 915	229 790 484 942	847	9 254 684 885
32	Uzum Bank	178 635	251 959 444 650	91 248	83 130 596 043
33	Apex Bank	93	7 820 554 781	-	-
34	Smart Bank	489	14 045 307 624	-	-
35	Yangi bank	1 063	893 725 935 372	77	4 504 154 183
36	Hayot bank	320	193 909 505 436	13	60 311 433
	Jami	4 080 127	105 312 867 487 064	1 949 798	15 216 677 204 635

Xulosa va takliflar

Biz ko'rishimiz mumkinki elektron to'lov tizimlari va banklararo pul o'tkazmalari zamonaviy moliya tizimining ajralmas qismidir. Bu tizimlar orqali pul o'tkazmalarini amalga oshirish jarayoni tez, qulay va xavfsiz bo'ladi. Elektron to'lov tizimlari - bu internet orqali pul o'tkazish, to'lov amalga oshirish va boshqa moliyaviy amallarni bajarishga imkon beruvchi platformalardir. Ular sirasiga PayPal, TransferWise, WebMoney kabi xizmatlari mavjud. Ushbu tizimlar tez hisob raqamlari orasida pul o'tkazish, savdo va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirishda foydalaniladi. Banklararo pul o'tkazmalari - banklar o'rtasida amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalarni anglatadi. Ular ko'pincha xalqaro pul o'tkazmalari, valyuta almashinuvi yoki kreditlar orqali amalga oshiriladi. Banklararo

pul o'tkazmalari yuqori darajadagi xavfsizlikni ta'minlaydi va ko'pincha pul o'tkazmalarining katta miqdorlarini qisqa vaqt ichida amalga oshirish imkonini beradi.

Afzalliklari - elektron to'lov tizimlari va banklararo pul o'tkazmalari qulaylik, tezlik, xavfsizlik va shaffoflikni taqdim etadi. Mijozlar o'z vaqtini tejaydi va xarajatlarni kamaytiradi, chunki jismoniy banklarga borish shart emas.

Qiyinchiliklari - elektron to'lov tizimlarida kiberxavflar, firibgarlik va maxfiylik muammolari mavjud. Banklararo o'tkazmalarda esa, xususiy banklarning tranzaksiya to'lovlari va xarajatlari muammo bo'lishi mumkin. Umuman olganda, elektron to'lov tizimlari va banklararo pul o'tkazmalari iqtisodiy jarayonlarni soddalashtirib, ularning samaradorligini oshadi. Ular zamonaviy moliya ekotizimining asosi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.SH.Z. Abdullayeva TOSHKENT "IQTISOD-MOLIYA 2017 528-bet.

2.A.A Omonov, T.M. Qoraliyeva TOSHKENT "IQTISOD-MOLIYA" 2019. 330-bet.

3. Yusupov, M., Akhmedov, B. A., & Karpova, O. V. (2020). Numerical Simulation of Nonlinear Vibrations of Discrete Mass with Harmonic Force Perturbation. Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent, 10 (4), 71-75.

4. Akhmedov, B. A., Xalmetova, M. X., Rahmonova, G. S., Khasanova, S. Kh. (2020). Cluster method for the development of creative thinking of students of higher educational institutions. Экономика и социум, 12(79). Uzbek Scholar Journal Volume- 18, July, 2023 www.uzbekscholar.com 3 | Page

Internet saytlari:

www.cbu.uz

www.lex.uz

www.stat.uz